

3 2022

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI


**ILMIY
AXBOROTLARI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК**

ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО ПЕДАГОГИЧЕСКОГО УНИВЕРСИТЕТА

SCIENTIFIC BULLETIN

OF THE TASHKENT STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY

ИЛМИЙ- НАЗАРИЙ ЖУРНАЛ



АНИҚ ФАНЛАР
ТАБИИЙ ФАНЛАР
ФАЛСАФА
ПЕДАГОГИКА
ПСИХОЛОГИЯ
ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР
ФАНЛАР

ISSN 2181-9580

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTLARI
ILMIY-NAZARIY JURNALI

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК
ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО
ПЕДАГОГИЧЕСКОГО УНИВЕРСИТЕТА

SCIENTIFIC BULLETIN
OF THE TASHKENT
STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY

2022

3-son

*Jurnal Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2014-yil
30-iyulda №02-00175 raqam bilan ro'yxatga olingan.*

MUNDARIJA

Xalikov A.A. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining nizoli vaziyatlarga munosabatini belgilovchi funksiyalar	5-9
Avazov Sh. Pedagogika fanida shaxs kamoloti va ma‘rifat masalasi	9-19
Adilova S.A. Til ta‘limida fanlararo integratsiyani ta‘minlash bo‘yicha xorijiy tajriba (tibbiyot terminlari misolida)	19-24
Халдаров Х.А., Ташпулатов Р.Х. Создание алгоритма управления качеством процесса обучения в приобретении знаний (для высших образовательных учреждений)	25-30
Алимова Ф.А. Условия подготовки будущих преподавателей химии к реализации проектной деятельности	30-37
Ishbayeva N.A. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy qayta tayyorgarligini takomillashtirish pedagogik muammo sifatida	37-41
Nuraliyeva K.I. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativlikni shakllantirishning ayrim psixologik - pedagogik xususiyatlari	41-48
Mamadaliyev B.M. Texnika ta‘limi yo‘nalishlarida elektron ta‘lim jarayonini amalga oshirish bosqichlari	48-54
Azimov A.T., Raximov R.S. Grafika tarixidan ba‘zi geometrik yasashlar	54-58
Abdullayeva D.N. Geografiya darslarini muammoli ta‘lim texnologiyasi asosida tashkil etish	59-68
Toshmurodov M.I. Yosh avlodni diniy bag‘rikenglik asosida tarbiyalashda oila va mahallaning o‘rni	68-77
Yoqubova S. Tabiatning shoirona tasviri	77-81
Xakimova Y.T. Oliy ta‘lim muassasalarida masofaviy ta‘limning vazifalari va uni tashkil etishning psixologik-pedagogik jihatlari	82-87
Yuldasheva N.S., Hamidova N.T. Buyuk siymolar tomonidan yaratilgan tarixiy, ilmiy va pedagogik qadriyatlarni zamonaviy yondashuvlar asosida ta‘lim jarayoniga integratsiyalash	87-91
Norboyev Z.N., Sulaymonov X.N. Kovrakning xomashyo sanoatida qo‘llanilishi	92-96
Uralova G.O‘. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida darsni oqilona tashkil etish ko‘nikmasini shakllantirish vazifalari	96-101
Xolnazarova D.M. Talabalarda huquqiy madaniyatni rivojlantirishning nazariy asoslari	101-108
Duysabayeva D.U. Til birliklarining madaniy semantikasini o‘rganish - lingvomadaniyatshunoslikning asosiy yo‘nalishlaridan biri	109-114
Maxmudova D.M. Talabalarda kreativ faoliyatni rivojlantirish tuzilmasi	114-119
Ergasheva S.T. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish savodxonligini	119-124

rivojlantirishni pedagogik qo'llab-quvvatlashning nazariy-metodologik asoslari	
Nurbaeva H.B. Yoshlar tarbiyasida milliy qadriyatlarning tutgan o'rni	124-128
Haqberdiyeva Sh.T. Maktab biologiyasida o'quvchilarning fanga oid kompetensiyalarini shakllantirish	129-132
Abdullayeva S.M. 5-6-sinf o'quvchilarining axborotlar bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasining ayrim jihatlari	132-139
Raxmatullayeva G.I. Mediateknologiyalar yordamida talabalarning milliy tarbiyasini rivojlantirish shakllari, usullari va vositalari	139-146
Babayeva M.A. Kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirishda xalqaro baholash tizimining ahamiyati va uning ta'lim samaradorligini oshirishda tutgan o'rni	146-154
Локтева Н.М. Европейская семья и семейная хроника в творчестве американского писателя Г.Джеймса	155-163
Karamatova.D. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ekologik madaniyatini integral yondashuv asosida rivojlantirish	163-169
Ismatullayev F.O. O'zbekistonning Yevropa Ittifoqi bilan turizm sohasidagi hamkorligi	169-177
Nazarov Q.N. Adabiyot darslarida o'quvchilarning ko'nikma va malakalarini rivojlantirishda nostandart topshiriqlarning tutgan o'rni va ahamiyati	177-183
Xudoyberdiyeva A.X. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy fikrlashini shakllantirish modeli	184-193
Ismoilov E.O. Talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda integrativ yondashuvning ahamiyati	193-199
Abduraxmonova D.A. Talabalarda kasbiy ko'nikmalarning "me'yoriy modeli"ni shakllantirish	199-203
Toshxo'jaeva N.R. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini "Tabiatshunoslik"ni o'qitishga kasbiy tayyorlash tizimi	204-212
Insapova G.G. O'qiv jarayoni samaradorligini oshirishda integratsiyalashgan ta'lim texnologiyalaridan foydalanish yo'llari	212-218
Adilov N.X. Integrativ yondashuv asosida bo'lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash imkoniyatlari	219-224
Umarov J.S. Talabalarning fuqarolik savodxonligini rivojlantirishda oliy ta'lim muassasalarining tutgan o'rni	224-230
Rajabova M.B. O'zbekistonda turar joy masalasining huquqiy asosi va sohaning davlat tomonidan tartibga solinishi	230-235
Jumaniyozova N.X. Maktab biologiya ta'limida tayanch va fanga oid	235-241

kompetensiyalar tizimi	
Xolmurodova L.E. Kimyoni o‘qitishning metodik tizimini ishlab chiqishda ta’lim mazmunini tanlash mezonlari	241-245
Pulatova D.R. Intensiv ta’lim texnologiyalari asosida talabalarning kommunikativ kompetensiyasini takomillashtirish mazmuni va bosqichlari	245-250
Panjiev Q.B. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlashning motivatsiyali, mazmunli va operatsiyali tarkibiy qismlarini pedagogik qo‘llab-quvvatlash	251-260
Usarov S.A. Mantiq elementlari va ular ustida operatsiyalardan foydalanishga oid ba’zi mulohazalar	260-267
Azimova N.E. Pedagogik mahorat ta’lim va tarbiyaning muhim omili sifatida	268-274
Nasimova Z.I. Modulli texnologiyalardan foydalanish orqali ta’limni tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari	274-280
Yaxyayev S.J. Elektron ta’lim muhitida o‘qituvchilar raqamli kompetensiyasining o‘rni va ahamiyati	280-286
Sobirxonov A.T. Tabiiy geografiya darslarida badiiy ijodiyotdan foydalanishning o‘ziga xos jihatlari va ahamiyati	286-290
Xonnazarova M.T. Mediatexnologiyalar asosida zoologiya ta’limi metodikasini takomillashtirish (suyakli baliqlar sinfini o‘rganish misolida)	291-296
Марупова Д.Д. Применение креативных технологий на уроках литературы в высшей школе	296-30
Supayeva A.N. Tabiiy fanlar yo‘nalishida PISA, PIRLS, TIMSS dasturlaridan foydalanishning afzalligi	302-308
Safarova S.O. Maktabgacha tarbiya yoshidagi dizartrik bolalarni savodga tayyorlash	308-316
Aralova L.A. “Devonu lug‘otit turk” leksikasining qipchoq shevalariga munosabati	316-322
Азимов Т.Д., Алимова Д.К. Современные методы преподавания начертательной геометрии при формировании пространственные представлений студентов	322-327

4. Шавкат Мирзиёев. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: “O‘zbekiston” нашриёти, 2021. – Б.303.
5. Шавкат Мирзиёев. Ўзбекистон маҳалла тизими ходимлари ва фаолларига /Халқ сўзи, 2021 йил, 22 март, №58-сон.
6. Ватанамиз тақдири ва келажаги йўлида янада ҳамжихат бўлиб, қатъият билан ҳаракат қилайлик. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2017 йил 15 июнда бўлиб ўтган “Ижтимоий барқарорликни таъминлаш, муқаддас динимизнинг софлигини асраш – давр талаби” мавзусидаги анжуманда сўзлаган нутқи. – //Халқ сўзи, 2017 йил, 16 июнь.
7. Каримов И.А. Юксак маънавият енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008 йил. Б. 59,60.
8. Маънавият: асосий тушунчалар изоҳли луғати/Ўзбекистон Файласуфлари миллий жамияти; таҳрир ҳайъати: Х. Суотонов ва бошқ.; тузувчи ва масъул муҳаррир Қ. Назаров. –Тошкент: Фафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2013. – Б. 66.
9. Qur’oni Karim ma’nolarining tarjiması. Tarjima va izohlar muallifi Abdulaziz Mansur. –Т.: Toshkent Islom universiteti, 2001 . –В. 34,128.

TABIATNING SHOIRONA TASVIRI

**Yoqubova S.I. – Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
tayanch doktoranti**

Annотatsiya. Ushbu maqolada jadid she’riyatidagi tabiat tasviri bilan bog‘liq ramziy ifodalar tadqiq etilgan. Unda jadid adabiyotining yetuk vakili Cho‘lpon she’riyatidagi tabiat tasviri, uning mazmun-mohiyati tahlil etiladi. Jadid shoirlari ijodida tuyg‘u va kechinma ifodasida tabiat tasviri bilan bog‘liq ramziylikning o‘rni atroflicha o‘rganiladi. Shu orqali muallif peyzaj, poetik ifoda, o‘ziga xoslik singari masalalar haqida muayyan fikr-mulohazalarni ilgari suradi. Maqolada ilgari surilgan fikrlar muxtasar holda umumlashtiriladi.

Kalit so‘zlar: she’riy asar, adabiy janr, tuyg‘u va kechinma, lirik qahramon, badiiylik, tasvir, ifoda, obrazlilik, ramz, o‘ziga xoslik.

ПОЭТИЧЕСКОЕ ОПИСАНИЕ ПРИРОДЫ

**Якубова С.И. - базовый докторант Ташкентского государственного
университета узбекского языка и литературы**

Аннотация. В данной статье рассматриваются символические выражения, связанные с изображением природы в джадидской поэзии. Анализируются образ природы в поэзии Чолпона, ведущего представителя

джадидской литературы, и его содержание. Подробно исследуется роль символики в выражении эмоций и переживаний в произведениях современных поэтов. Таким образом, автор выдвигает определенные идеи по таким вопросам, как пейзаж, поэтическое выражение, оригинальность. Кратко изложены идеи, выдвинутые в статье.

Ключевые слова: поэтическое произведение, литературный жанр, эмоции и переживания, лирический герой, искусство, образ, выражение, образность, символ, оригинальность.

POETICAL DESCRIPTION OF NATURE

Yakubova S.I. - Basic doctoral student of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature

Annotation. This article deals with the symbolic expressions associated with the depiction of nature in Jadid poetry. The image of nature in the poetry of Cholpon, the leading representative of the Jadid literature, and its content are analyzed. The role of symbolism in the expression of emotions and experiences in the works of modern poets is studied in detail. Thus, the author puts forward certain ideas on issues such as landscape, poetic expression, originality. The ideas put forward in the article are briefly outlined.

Key words: poetic work, literary genre, emotions and experiences, lyrical hero, art, image, expression, imagery, symbol, originality.

Sharq adabiyoti, xususan, o‘zbek mumtoz adabiyotining an‘analari mavjud bo‘lib, har bir ijodkor bu an‘analarni o‘ziga xos tarzda davom ettiradi va muayyan darajada rivojlantiradi. Shulardan biri peyzaj tasviri hisoblanadi. O‘zbek adabiyotshunosligida peyzaj masalasi bo‘yicha bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. A.Erkinov (7), N.Yo‘ldoshev (2) kabi olimlarning monografik harakterdagi ilmiy ishlarida bu masala maxsus o‘rganilgan.

Tabiat tasviri bilan bog‘liq obrazlarning adabiyotimizga kirib kelishi uzoq davrlb arga borib taqaladi. Bunday obrazlar dastlab xalq qo‘shiqlari, xususan, Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asarida uchraydi. Yozma adabiyot taraqqiy etgach, shoirlarimiz peyzajga shunchaki manzara sifatida qarash bilan cheklanmay, o‘z davrining turli masalalarini, olam va odamga munosabatini ifodalovchi vosita sifatida qarashdi va ular ijodida tabiat tasviri alohida ahamiyat kasb eta boshladi. “Peyzaj tasviri mohiyatsiz o‘z-o‘zicha bir hodisa emas, balki u falsafiy, didaktik yoki ijtimoiy ruhdagi biror g‘oya, maqsadni ifoda etish uchun o‘ziga xos vosita rolini o‘taydi” (3.23).

Atoiy, Lutfiy, Navoiy, Bobur, Munis, Ogahiy kabi shoirlarimiz ijodida tabiat tasvirining go‘zal namunalarini ko‘rishimiz mumkin. Alisher Navoiy “Hamsa”da Farhod, Layli, Majnun, Bahrom, Iskandar kabi qahramonlarining ruhiyatini ochishda peyzajdan mahorat bilan foydalangan [9]. Ayniqsa, “Saddi Iskandariy” dostonida tabiat tasviri va Iskandarning tuyg‘ulari o‘zaro bog‘liqlikda tasvirlanadi. “Qish va bahor tasvirlarining dostonga olib kirilishi Navoiyning Iskandarga bo‘lgan ikki jihatdan munosabati bilan ham bog‘langandir. Navoiy Iskandarning ijobiy ishlarini quvvatlaydi, unga bahorni hamroh etadi, uning ishlaridan ko‘ngli to‘lmaganida esa qish vositasida unga monelik qiladi“ (8. 42).

Muhammad Rizo Ogahiy ham peyzaj yaratish an‘anasini mahorat bilan davom ettiradi, ayniqsa, uning fasllar vasfiga bag‘ishlangan she‘rlari e‘tiborga molikdir:

*Navbahor ayyomi bo‘lsa har kim aysh-u bog‘siz,
Loladek bir lahza g‘amdin ko‘ngli ermas dog‘siz.*

*Kimsa bo‘lsa bog‘-u bo‘stonsiz, agar fasli bahor,
O‘yla nahlidurki bo‘lg‘oy shoha-u yafrog‘siz. (6. 220).*

Ogahiyning bahor tasviriga bag‘ishlangan mazkur g‘azalida g‘amginlik ruhi mujassamdir. Undagi navbahor, lola, bog‘, bo‘ston, shox, yaproq so‘z-tushunchalari orqali g‘amginlik, mahzunlik, shuningdek, muayyan darajada norozilik tuyg‘ulari ham ifodalanadi. She‘rda tabiatning bahor ayyomidagi go‘zal manzarasi-yu, jamiyatdagi iqtisodiy nochor insonlar hayoti bir-biriga qarshi qo‘yiladi. Tabiat manzarasi va inson taqdiri bog‘liqlikda aks ettiriladi (5. 85).

Mumtoz she‘riyatda uzoq asrlar davom etib kelgan peyzaj bilan bog‘liq an‘analar XX asrda ham ijodkorlarimiz tomonidan davom ettirilgan. Bu davrda o‘zbek she‘riyatida asosan, inson dardini tabiat voqea-hodisalariga bog‘lab tasvirlangan she‘rlarni uchratamiz. Bu an‘analar jadid shoirlarining ko‘pchiligi qatori Cho‘lpon she‘riyatida ham ijodiy davom ettirildi. Bunga Cho‘lponning “Somon parcha”, “Yorug‘ yulduzga”, “Ko‘klam qayg‘usi”, “Po‘rtana”, “Binafsha”, “Kuz”, “Tun” she‘rlarini misol qilishimiz mumkin.

“...Cho‘lpon she‘rlarida tabiat manzaralari, fasllar tasviri aksariyat shoirning ruh va kayfiyatinigina emas, qay bir darajada g‘oya va maslagini ham o‘zida namoyon etadi. 1921-1923 yillarda yozilgan she‘rlarda tabiatga ijtimoiy sifatlar berilardi“ (11.289). Bu fikrlar tasdig‘ini shoir ijodidan ko‘plab misollar orqali kuzatishimiz mumkin. Cho‘lponning “Sharq nuri”deya atalgan she‘ridagi quyidagi misralarga ga e‘tibor qaratamiz:

*Sharqning kuni kirs a bulut ostiga,
Sening so‘nuk kunlaringni o‘ylayman.
Botib borgan oyga qarab:”Ay yo‘qsul,*

U ulug‘ nur senmasmu?”- deb so‘rayman (12. 378).

Ushbu satrlarda bulut, nur, oy kabi an‘anaviy ramzlar mavjudligini ko‘rishimiz mumkin. Tilimizning jozibasi, ranginligi, naqadar boyligini namoyon etgan shoir millat boshiga kelgan qora kunlardan chuqur iztirob chekadi. Shoir yurtining qayg‘uli kunlarini botayotgan kunga, ya‘ni, quyoshga, bulutga to‘la osmonga qiyoslaydi. Shoir lirik qahramoni taqdir oldida taslim bo‘lishni istamay ulug‘ nurdan ya‘ni vatanining yorug‘ kunlaridan umidvorlik tuyg‘usini hamisha his qilib yashaydi.

*To‘g‘rilik quyoshi chiqqanda bo‘sholib,
O‘z uchmohimga o‘zim kirayin!... (12. 381).*

“Mening tovushim” she‘ridan olingan misralarda esa shoir quyosh ramzidan foydalanganini ko‘rishimiz mumkin. Shoir qachonlardir, to‘g‘rilik quyoshi chiqishini, millat o‘z orzusidagi hayotga erishishini chin yurakdan tilaydi va ana shu kunlar kelganda o‘zini jannatdagidek his qilishiga ishonadi. U o‘zini xalqdan ajratmaydi, uning bir zarrasi deb biladi.

Cho‘lponning tabiat tasviriga bag‘ishlangan she‘rlarining ko‘pchiligining botinida ham erk haqidagi orzularini ko‘rishimiz mumkin:

*Binafsha, sen uchun ko‘kragim erk yeri,
Bu yerdan ko‘klarga uchgil (12. 452).*

Cho‘lpon tabiat bilan jamiyat o‘rtasidagi uyg‘unlik va hamohanglik zarur ekanligini, bu jamiyat va insoniyat uchun tabiiy ehtiyoj ekanligini kuyinib yozadi. “Somon parcha” she‘rida ham shu holat yaqqol namoyon bo‘ladi:

*Muhit girdobida bir somon parcha,
Bir poxol cho‘pidek oqib boraman
Har amal, har ishni “haq” deb boraman,
Vazminim qolmadi bir uzuq qilcha (12.481).*

“Binafsha” she‘ridan farqli o‘laroq “Somon parcha” she‘rida taslimlik kayfiyati ustunlik qiladi. Ya‘ni kurashlardan charchab, o‘zini muhit erkiga topshirgan inson qiyofasini somon parcha misolida ko‘rishimiz mumkin.

“Barg” she‘rida esa:

*O‘pmayman shu chog‘da farishta malakni,
O‘paman butoqda titragan bir bargni (12. 436).*

deya go‘zal misralarni bitadi. Cho‘lpon go‘zallikda farishtalardek malaklardan ko‘ra butoqda titrab turgan bargni afzal ko‘radi. Barg - tiriklik, yasharish faslining, umrning gullagan paytining ramzi. Lekin kuz shamoli nashtarini sanchib bargni yaproqqa aylantiradi. Yaproq esa xazon bo‘lish, inson umrining boqiy emasligi ramzidir. Tabiat sirlarini tushunish insonga hayot hodisalarining mohiyatini anglashda ham katta yordam berishini yaxshi tushungan shoir o‘z she‘rlarida xilma-xil betakror tabiat lavhalarini yaratadi [4].

Cho'lponning peyzaj lirikasida "Ko'klam qayg'usi" she'ri alohida ajralib turadi. Qish xayolidan endigina qutila boshlagan lirik qahramon ko'klam payti uqubatli uzun qish kechalarini eslashniyam xohlamaydi. Ammo orziqib kutgan ko'klam ham unchalik quvonchli emas[10]. Shoir bu holatni "Ko'klam chog'i ... Sayroq bulbul sayramas, Na uchunkim, tanburimning tili yo'q" – deya tasvirlaydi. She'ring keyingi misralari nafaqat g'oyaviy o'nalishi? Balki obraz va ifodalarga boyligi bilan ham e'tiborga molikdir.

Yolg'iz menmi ko'klam chog'i yig'lagan?

Yolg'iz menmi har umidda aldangan?

Yolg'iz menmi ko'kragimni tig'lagan?

Yolg'iz menmi sevinch bilan bo'lmagan?

Ey ko'klamning ko'z tortg'uvchi kelini,

Nima uchun yig'latasan bir meni? ...(12. 451)

She'rda bir jihatdan ko'klam paytidagi tushkun holat, ikkinchi tomondan esa bahorning betakror go'zalligi mahorat bilan tasvirlangan. Iztirob, yig'i, aldanish singari tuyg'ular lirik qahramon qalbiga azob beradi. Ko'klamdan katta umidlar kutgan lirik qahramon o'z maqsadiga erisha olmaydi. Uning orzusi xalqini erkin va ozod ko'rishdir. Mazkur o'rinda ko'klam, qish ramzlari orqali shoir o'z qarashlarini shoirona ifoda etgan. Tajohilu orif san'ati mahorat bilan qo'llanilgan[1].

Umuman, Cho'lpon qaysi mavzuda qalam tebratmasin millatparvar lirik qahramon siymosini mohirona chizadi. Uning peyzaj lirikasida ham bu jihat yaqqol namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar

1. Akramov B. Cho'lpon chindan murakkabmi? / O'z. A. S. , 1990, 13- iyul
2. Yo'ldoshev N. Cho'lpon she'riyatida peyzaj. Filologiya fanlari nomzodi...diss. avtoreferati. - T., 1994
3. Is'hoqov Y. Navoiy poetikasi. – T., 1983
4. Karimov N. Cho'lpon. – T., 1991
5. Matyoqubova T. Poetik idrok va mahorat. – T.: Fan va texnologiya, 2010
6. Ogahiy. Asarlar. 6 jildlik. J.1. – T.: Adabiyot va san'at, 1971
7. Turdiyev Sh. Tong yulduzi qismati. Yoshlik, 1991. № 3
8. Erkinov A. Navoiyning peyzaj yaratish mahorati. – T., 1990
9. Erkinov A. Navoiy - peyzaj ustasi. – T.: Fan, 1988
10. Sharafiddinov O. Cho'lpon. – T., 1991
11. Qosimov B., Yusupov Sh., Dolimov U., Rizayev Sh., Ahmedov S. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. – Toshkent: Ma'naviyat, 2004
12. Cho'lpon. Yana oldim sozimni. – T.: G'afur G'ulom nashriyoti. 1991